



## THE LIFE OF IMAM A'ZAM ABU HANIFAH

Mannonov Yorqin

Student, Karshi State University

### Annotation:

The life of the Great Imam Abu Hanifa, his piety, his contributions to the holy religion of Islam, his devotion to God, his manners and behavior that set an example for generations, his fear of someone's rights, etc.

**Keywords:** madhhab, Kufa, Abu Hafz al-Kabir, hadith, halal, piety, silver coin, gazlama, price setter, butcher, shepherd, mutton, nafl, khatm, column, ro' za, Rasulullah, Persian people, judgeship, Khurasan, governor's dream, prison, hajj, poison.

## IMOMI A'ZAM ABU HANIFA HAYOTI

Mannonov Yorqin, talaba

Qarshi Davlat Universiteti

### Annotatsiya:

Buyuk imom Abu Hanifa hayotlari, u zotning taqvolari, muqaddas Islom diniga qo'shgan hissalar, u zotning Allohga bo'lgan ixloslari, avlodlarga namuna bo'ladigan odoblari, xulqlari, bironing haqqidan qo'rqishlari va hokazo.

**Tayanch so'zlar:** mazhab, Kufa, Abu Xafz al-Kabir, hadis, halol, taqvoli, kumush tanga, gazlama, narx belgilovchi, qassob, cho'pon, qo'y go'shti, nafl, xatm, ustun, ro'za, Rasululloh, fors ahli, qozilik, Xuroson, hokimning tushi, zindon, haj, zahar.

Dunyoda Islom dini tarqala boshlabdiki, haqiqat, adolat, chin e'tiqod paydo bo'ldi. Islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlar dunyoni go'zallik bilan to'ldirishdi. Islom diniga xizmat qilgan ko'plab olimlar yetishib chiqdiki, ularning faoliyati bilan Islom yanada go'zallashdi. Islomga chin dindan xizmat qilgan, o'z davrining eng ulug' olimi Imomi A'zam Abu Hanifadir. Bu zotning qilgan xizmatlari shu qadar buyukki, biz musulmonlar ul zotdan minnatdormiz. Hozirda muqaddas dinimizda 4 ta mazhab bor. Bular: hanafiylik, molikiylik, shofe'iylik va hanbaliylik mazhablaridir. Bu mazhablar orasida Imomi A'zam asos solgan hanafiylik mazhabi dunyo musulmonlarining eng katta qismini o'z ichiga oladi. Vatanimiz O'zbekiston ahli ham hanafiylik mazhabidadir. Har bir musulmon kishi o'z mazhabi haqida, bu mazhabni





asoschisi kim ekanligi, uning hayoti to'g'risida kerakli ma'lumotga ega bo'lishi kerak. O'z mazhabboshisi haqida bilmaslik esa bilimsizlikdir.

Imomi A'zam Abu Hanifaning ismi No'mon ibn Sobitdir. U kishi hijriy 80-yilda (milodiy 699-yil) Iroqning Kufa shahrida tug'ilgan. O'ziga to'q, zodagon oiladan bo'lib, olim va fozil insonlar orasida voyaga yetgan. Otasidan qolgan katta boylikni ilm yo'lida sarf etgan. Yoshligidayoq Qur'onni yod olgan. Kunyalari Abu Hanifadir, ya'ni musulmonlar toifasining otasi va mehriboni demakdir<sup>1</sup>. "Imomi A'zam" ya'ni buyuk imom nomi esa ulug'ligi e'tirof etilib berilgan unvondir. Rivoyat qilinadiki, Imomi A'zamning bobolari Zuto o'z o'g'li Sobitni ya'ni imomi A'zamning otalarini go'daklik chog'ida hazrati Alining oldiga olib borib, o'g'limning haqqiga duo qiling, deb iltimos qiladi. Shunda hazrati Ali roziyallohu anhu, o'g'lingga Alloh muborak zurriyot ato qilsin, deb duo qilgan ekanlar. Abu Hanifa 22 yoshida iroqlik ulug' alloma, ilohiyotchi Hammod ibn Abu Sulaymonga shogird tushib, uning ta'limini ola boshlaydi<sup>2</sup>. Imomi A'zamning ustozlari juda ko'p bo'lgan. Imom Abu Xafz al-Kabirning aytishlaricha, Abu Hanifa 4000 dan ortiq ustozdan ilm o'rgangan. Lays ibn Sa'd va Imomi Doru-l-hujra Molik ibn Abu Muhammad al-Ayniylar u kishining ustozlari bo'lgan. Abu Hanifaning eng oxirgi mashhur ustozlari imom Hammod ibn Sulaymondur. Imomi A'zam hadis ilmida ham shu qadar mahoratli bo'lganlarki, bu haqida Hasan ibn Ziyod degan zot, imomi A'zam shaxsan 4000 hadis rivoyat qilganlar, deydilar. Shu 4000 hadisning teng yarmini ustozlari Hammod ibn Sulaymondan, qolgan 2000 ini boshqa tobeinlardan rivoyat qilganlar. Imomi A'zamning o'zlari ham tobeinlardan bo'lganlar. Bu davrda Kufa shahrida 1500 sahoba yashagan edi. Demak, bu sahobalarning ilmlaridan bahra olgan imomimiz Abu Hanifa shunday ilmida tengsiz bir maqomda hammaga ustoz bo'lib, nafaqat oddiy musulmonlarga, balki din peshvolari bo'lgan mujtahid ulamolarga ham ustozlik darajasiga chiqqan ekanlar. Ulamolardan biri hazrati Imomi A'zamni eng kamida 83 mingta masala aytganlar, deydilar. Bu - to Qiyomat so'ralishi mumkin va lozim bo'lgan hamma masalalarga Imomi A'zam javob aytganlar, deganidir. 83 ming masalani aytishga bir odamning umri kifoya qilishi o'ta mushkuldir. Lekin Alloh imomimizga shunday ne'matni ato etgan

Ul zot nihoyatda halol, taqvoli, husni-xulq egasi bo'lganlar. U kishining tijoratdagi halolliklari tarixda doston bo'lib qolgan. Imomimiz bir sheriklari bilan boshqa yurtga mol yuboribdilar. Mollarning birini sifati yaxshi, biriniki esa sifatsizroq ekan. Sheriklariga sifatlil molni qimmatroq, sifatsizini esa arzonroq sotishni tayinlabdilar. Lekin mol yetkazilgan yurtda aynan shu narsa taqchil bo'lganligidan, mahsulotlarning hammasi qimmat sotilib ketibdi. Sheriklari 30 ming kumush tangalik savdo qilib Kufaga qaytibdi. Shunda Imomimiz sheriklaridan: "Ikki xil navli molni ikki xil narxda sotdingmi?" deb so'rabdilar. Sheriklari esa yo'q, odamlar o'sha





qimmat narxda ham rozi bo'lib sotib olaverdilar, deb javob beribdi. Shunda Imomi A'zamning dili og'rib, o'sha 30 ming tanga Alloh yo'lida sadaqa bo'lsin, debdilar. Bir kuni imomi A'zam bozorda gazlama xarid qilmoqchi bo'ldilar. Molning egasi 100 tanga deb baho aytdi. Imomimiz o'zlari savdogar bo'lganlari uchun ham mol 100 tangalik emas, balki ancha qimmatroq ekanligini sezadilar. Shuning uchun, savdogarga molingiz 100 tangalik emas, qimmatroq narx aytsangiz sotib olaman, deydi. Mol egasi 200 tanga beraqoling, deydi. Lekin imomimizga bu mol bundan ham qimmatroq tuyulaveradi va buni yana savdogarga aytadilar. Mol egasi esa, bu mening narsam, qaysi narxda sotgim kelsa sotaveraman, deydi. Shunda Imomi A'zam bozorning narx belgilovchi oqsoqolini chaqirib kelib, matoning narxini aniqlab berishni so'raydilar. Narx belgilovchining aytishicha, bu gazlama 500 tangalik ekan. Shunda Imomimiz matoni 500 tangaga sotib olibdilar. Imomi A'zam avvalgi masalada sotuvchi sifatida birovning haqidan qanchalik qo'rqqan bo'lsalar, keyingi masalada xaridor sifatida ham birovning haqidan shunchalik qo'rqqanlar. Yana bir kuni Abu Hanifa Kufa shahri qassoblari o'g'rilar keltirgan qo'ylarni sotyaptilar, degan gapni eshitib qoladilar. Shu kuniyoq bir cho'ponning oldiga borib, undan bitta qo'y necha yil yashaydi, deb so'raydilar. 7 yil degan javobni eshitganlaridan so'ng, Imomimiz shuncha yil qo'y go'shti yemagan ekanlar. Bizning imomimiz Abu Hanifa shu qadar halol va pokiza inson bo'lganlar.

Imomimiz nihoyat darajada ibodatli kishi ham edilar. U zot ibodatda shu qadar muqim bo'lganlarki, 70 yillik hayotlarining 40 yilida kechalari uxlamay ibodat qilgan ekanlar<sup>3</sup>. 30 yoshlik chog'laridan to umrlarining oxirigacha xufton namozidagi tahoratlari bilan bamdod namozini o'qigan ekanlar. Kechalari Imomi A'zam hazratlari yangi liboslarini kiyib, namozga turar ekanlar. Bir rakatda shundoq turib, nafl namozida 30 pora Qur'on o'qiydilar. Ramazoni sharifda esa Qur'onni har kuni ikki bor xatm qilar ekanlar. Alloh taolo imomimizga Qur'on xatm qilishlari uchun vaqtni ham barokatli qilgan. Imomimiz vafot qilgan xonalarida 7 ming marta Qur'onni xatm qilgan ekanlar. 7 ming marta Qur'on xatm qilish - bu muttasil 20 yil davomida har kuni bir bor tik turib Qur'on o'qish deganidir. Imomi A'zam rahmatullohi alayhga shu nasib etgan ekan. Imomimizning kechalari namozda tik turishlariga qo'shnilari shu qadar o'rgangan ekanki, u zot vafot qilganlarida bir qo'shnilarining yosh farzandi otasiga, ota qo'shnimizning uyi o'rtasida bir ustun bo'lar edi, yiqilib tushibdi, degan ekan. Shunda otasi, o'g'lim bu ustun emas edi, shu xonadonning egasi Abu Hanifa har kecha namozda turganini ko'rар eding, u kishi vafot qildilar, deb javob qiladi. Imomi A'zam shu qadar namozga baquvvat, Qur'onga muhabbatli bo'lish bilan birga, umrlarining so'ngi 30 yili ichida biron kun og'izlari ochiq bo'lmagan ekan. Ya'ni hayotlarini doimiy ro'za bilan o'tkazgan ekanlar. Imomimizning ibodatdagi bunday





mustahkamliklari siz bilan bizga dars bo'ladigan, namuna bo'ladigan va bu kishini tanimaydiganlar yaxshiroq tanib olishlariga sabab bo'ladigan fazilatlaridandir.

Imomimiz Abu Hanifaning tug'ilishlari va umuman, hayotlari haqida hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning hadislarida ishorat berilganligi to'g'risida ulamolar tarafidan aytiladi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bir muborak hadislarida: "Haq din agar yerda emas, osmonda, Surayyo yulduzida bo'lsa ham, fors ahliidan bo'lgan kishilar ana shu iymonga yetib borib, ahli iymon bo'lib o'tadilar", deb bashorat qiladilar. Ulug' ulamolarimizdan Jaloliddin Suyutiy mana shu hadis Payg'ambarimiz alayhissalom taraflaridan Imomi A'zamning dunyoga kelishlariga bashorat va ishoratdir, deydilar. Imomi A'zam hanafiylik mazhabi asoschisidirlar. U kishi shunday der edilar: "Biz bu masalada faqat zarurat bo'lganidagina qiyosga o'tamiz. Bu shunday: Kitob va sunnatda, sahobalarning hukmlarida dalil topolmasak, sahobalar ittifoq bo'lgan masalaga amal qilamiz. Agar sahobalar ixtilof qilishgan bo'lsa, illati mushtarak bo'lgan ikki hukmni bir-biriga qiyoslaymiz. Sahobalardan boshqalar esa bizlar kabidir". "Sen dinda ko'p qiyos qilmoqdasan. Ilk qiyos etgan iblisdir", degan kishilarga Imomi A'zam juma kuni Kufa masjidida mazhabining mohiyatini tushuntirib: "Men Allohning kitobi bilan, so'ng Rasulullohning sunnatlari bilan, undan keyin esa sahobalarning qarashlari bilan amal qilaman, agar ular ixtilof qilishgan bo'lsagina, qiyosga o'taman", dedilar. Shunda jamoat Imomning qo'lini o'pib: "Siz olimlar sarvarisiz, siz haqingizdagi oldingi yomon gumon gap-so'zlarimiz uchun bizni afv eting", deyishdi. Imomi A'zam: "Alloh taolo bizni va sizni kechirsin!" dedilar<sup>4</sup>. Abu Hanifaning juda ko'p shogirdlari bo'lgan. Ulardan biri Imom Abu Yusuf xalifa Horun ar-Rashid (786-809) davrida qozilik lavozimida ishlagan. Yana bir shogirdlari imom Muhammad ibn Hasan shofe'iylik mazhabi asoschisi imom Shofe'iyning ustozlari bo'lganlar. Abu Hanifaning shogirdlaridan biri Hasan ibn Ziyod Abu Hanifaning "Al-Mujarrad", "Qozining odobi", "Nafaqalar", "Faroiz" (Meros ilmi), "Hislatlar" kabi kitoblarini yozib tugatgan. Abu Hanifaning o'g'li Hammud va nabirasi Ismoil ham shar'iy ilmlar borasida yetuk alloma bo'lganlar, turli shaharlarda qozilik mansabida ishlaganlar. Xurosonda birinchi bo'lib hadis yozib olgan Abdulloh ibn Muborak ham Abu Hanifadan ta'lim olgan. Imom Shofe'iy ta'biri bilan aytganda, "barcha odamlar fiqhda Abu Hanifaning boqimandalari " edi. Ya'ni u zotning ilmlari shu qadar yaxshi bo'lganki, hech kim u kishidan ilm borasida o'zib ketolmagan. Imomi A'zam mansabga umuman qiziqmaganlar. Kufa hokimi ibn Hubayra Abu Hanifaga Kufaga qozi bo'lishni taklif qiladi. Imomimiz, men qozilik lavozimida ishlashga Allohdan qo'rqaman, deb taklifni rad etadilar. Shunda hokim zindonband qilib, har kuni 10 darra urish bilan tahdid qiladi. Imomimiz: "Allohning oxirat diyoridagi azobidan bu dunyodagi hokimning azobi, albatta, yengil bo'ladi, men







roziman ", deydilar. Zindonband qilingandan so'ng, 10 kun davomida Imomi A'zamni hokimning oldiga olib borar ekanlar. Hokim, rozilik berasizmi endi qozi bo'lishga, deb so'raganida, har safar rad javobini eshitgach, g'azablanar, yana 10 darra urishga buyurar ekan. Shu tariqa Imomimiz 10 kunni azobda o'tkazibdilar. 11-kunga o'tar kechasi hokimning tushiga Rasululloh kiribdilar. Payg'ambarimiz alayhissalom hokimga, "Mening sunnatimni tiriltirib, dunyoga yoyayotgan zotni zindonga olib kirishdan qo'rqmaysanmi?" deb tanbeh berdilar. Shundan so'ng tong otishi bilanoq hokim shaxsan o'zi zindonga kirib, imomdan uzr so'rab, ozod etibdi. Shundan so'ng imomimiz Kufani tark etib, Makkai Mukarramaga ketadilar va bu muborak shaharda 10 yillar davomida istiqomat qildilar. Imomi A'zam 70 yillik hayotlari davrida 55 marta haj ibodatini ado etganlar. Buyuk imom Abu Hanifaga yana qozi bo'lish taklifi tushdi. Lekin bu safar taklif xalifa Mansur tomonidan edi. Mansurning qozi bo'lish taklifiga rad javobini berganlaridan so'ng, xalifa buyrug'i bilan imomi A'zam qiynoqlarga solindi. Har kuni 10 qamchi bilan savalanib, bozorlardan sazoyi qilib aylantirilar edi. Imomi A'zam Allohga yolvorib duo qildilar, ko'p yig'ladilar. 5 kun shu duo va munojotdan keyin vafot qildilar. Boshqa bir rivoyatda keladiki, imomi A'zam xalifa Mansurning buyrug'iga ko'ra yiqitilib, og'izlariga zahar quydirildi va shu yerda vafot qildilar<sup>5</sup>. Bu mudhish voqea hijriy 150-yilda (milodiy 767-yil) Bag'dodda sodir bo'ldi. Alloh bu zotni o'z jannati ne'matlari bilan mukofotlasin, barcha musulmonlarni Imomi A'zamdek halol, taqvoli, farosatli, adolatli, ilmli, husni-xulqlardan qilsin, Omin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Vasliy Samarqandiy. Imomi A'zam tarixi. Toshkent., 1995.
2. Islom ensiklopediyasi, 2004.
3. Alouddin Mansur. Imomi A'zam - buyuk imomimiz. Toshkent., 1999.
4. Imomi A'zam Abu Hanifa. Musnad. Toshkent., 2005.
5. Vasliy Samarqandiy. Imomi A'zam tarixi. Toshkent., 1995.

